Mamatmurodov Alisher Saparboyevich	
ВОЗДЕЙСТВИЕ ЦИФРОВИЗАЦИИ ЭКОНОМИКИ НА РАЗВИТИЕ БИЗНЕСА В УЗБЕКИСТАНЕ	1172
Бабаназарова Гульзар Зиуатдиновна	
YANGI TITIB-TA'MINLAGICH TA'SIRIDA PAXTANI TITILISH JARAYONINING NAZARIY TAHLIL NATIJALARI	1178
Qurbanbaev Elyor Baxtiyarovich, Sobirov Doniyor Xolmurodovich	
TIJORAT BANKLARINING IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH BO'YICHA XORIJIY TAJRIBALARI.....	1183
Uralov Shavkat Makhramovich	
INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI MOLIYALASHTIRISH MEKANIZMLARI.....	1188
Tuychiyev Abduraxmon G'ofurovich	
AGROTADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA EKSPORT LOGISTIKASI VA TA'MINOT ZANJIRINI OPTIMALLASHTIRISHNING IQTISODIY MEKANIZMLARI	1193
No'monov Otabek O'rmonjon o'g'li	
QURILISH MATERIALLARI KORXONALARIDA INQIROZ SHAKLLANISHIGA MAKROIQTISODIY VA TARMOQ OMILLARINING TA'SIRI.....	1198
O'rinboyev Doniyorjon Baxtiyorjon o'g'li	
5LP LINTERIDAGI CHIGIT ARALASHTIRGICHNI MODERNIZATSIYA QILISH BO'YICHA BAJARILGAN ISHLARNING TAHLILI VA TADQIQOT YO'NALISHLARINI BELGILASH	1204
Nazirov Raxmatjon Rasulovich, Karimov Maxmud Raxmatovich, Abduqahorov No'monbek Oybek o'g'li	
QISHLOQ XO'JALIGIDA BUG'DOY YETISHTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI VA UNING MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLARGA TA'SIRI	1209
Azamqulov Nurbek Ulug'bek o'g'li	
O'ZBEKISTONDA DAVLAT XARAJATLARINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI	1215
Fayziyev Rabim Alikulovich, Tohirova Zarifa Shuhrat qizi	
RAQAMLI IQTISODIYOTDA TIJORAT BANKLARI MOLIYAVIY BOSHQARUVINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1221
Ajibayeva Raiiya Maxsutovna	



CHAKANA SAVDO TARMOG'INING MILLIY IQTISODIYOTDA TUTGAN O'RNI VA BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI.....	1225
G'aybullayev Sarvar O'ktam o'g'li	
MEHNAT BOZORI STRUKTURASI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	1232
Soatmo'minova Zarnigor Olimjon qizi	
KORXONALAR AUDITIDA BLOKCHEYN TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI.....	1237
Tuyinov Botir Ismatovich	
THE ROLE OF NATIONAL MENTALITY AND VALUES IN INSTITUTIONAL TRANSFORMATION PROCESSES.....	1243
Abdulmajeed Nabeel Azouz	
ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ HR-ТЕХНОЛОГИЧЕСКИХ ПЛАТФОРМ: ВЫЗОВЫ И РЕШЕНИЯ.....	1250
Амирджанова Ситора Сунатовна, Шаюсупова Наргиза Тургуновна, Исомухаммедов Исроил Исомухаммадович, Урозбоев Хайрулла Муродбойевич, Маматкулов Хумоюн Бобирович	
HUDUDLARNING MOLIYAVIY MUSTAQILLIGINI OSHIRISH VA MAHALLIY BOSHQARUV VAKOLATLARINI KENGAYTIRISHNING IJTIMOY-IQTISODIY SAMARADORLIGI: STATISTIK VA EKONOMETRIK TAHLIL	1255
Sharipov Abror Komilovich	
O'ZBEKISTONDA TURIZM VA MEHMONXONA XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION SIYOSAT	1260
Shokirov Firdavsbek Ulug'bekovich	
HUDUDIY RIVOJLANISHNI BAHOLASH METODOLOGIYASINING ILMIY MUAMMOLARI	1265
Sattorov Sanjar Abdumurodovich	
TRANSPORT TIZIMIDA YO'LOVCHI TASHISHNI TASHKIL ETISHNING ILG'OR XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI.....	1271
Sevara Aytieva Allaberdiyevna	
O'ZBEKISTON BANK TIZIMIDA LIKVIDLIKNI QOPLASH ME'YORI (LCR) DINAMIKASI VA LIKVIDLIK BOSHQARUVI SAMARADORLIGI	1279
Sulaymanov Samandarboy Adhambek o'g'li	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN CHAKANA BANK XIZMATLARINI KO'RSATISHNING JORIY HOLATI TAHLILI	1286
Xikmetov Nodirbek Ikromovich	
O'ZBEKISTONDA TARIXIY-MADANIY TURIZM DESTINATSIYALARINING HUDUDIY RIVOJLANISHI VA SAMARADORLIGINI TAHLIL QILISH	1293
Ibroximov Nodirbek	
INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA AHOLINI IJTIMOY TA'MINOTINI TARTIBGA SOLISHNING MOLIYAVIY MEXANIZMLARI.....	1299
Xusanov Baxodir Sheraliyevich	
QURILISH KORXONALARI FAOLIYAT SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI.....	1302
Yahyoyev To'liqin Ismatulla o'g'li	
QASHQADARYO VILOYATIDA SUG'URTA XIZMATLARI RIVOJLANISHINING STATISTIK TAHLILI.....	1306
Ismoilov Sherzod Ismoil o'g'li	
ANALYSIS OF THE EFFECTIVENESS AND CURRENT STATE OF INVESTMENTS IN HUMAN CAPITAL IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN.....	1310
Akhmadaliyeva Nikholakhon	
MANAGEMENT SYSTEM TRANSFORMATION AS A STRATEGIC DRIVER OF SUSTAINABLE PRODUCTION EFFICIENCY IN INDUSTRIAL ENTERPRISES	1317
Kodirov Bekzod Khomidjonovich	



O'ZBEKISTON TA'LIM TIZIMINI TRANSFORMATSIYA QILISH SHAROITIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK MEXANIZMLARINI QO'LLASH ISTIQBOLLARI	1322
O'ktamova Nargiza Narzulla qizi	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA MOLIVAVIY BOSHQARUV TIZIMLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING INSTITUTSIONAL VA INNOVATSION MEXANIZMLARI	1327
Ergashev Muhibbek Aslam o'g'li	
MINTAQANING TURISTIK VA DAM OLISH MAJMUASINI RIVOJLANTIRISHNI BOSHQARISH.....	1332
Q.A. Musaxanov	
CHORVACHILIK INFIRATUZILMASI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH	1336
Nurmanov Sherzod Xujayarovich	
ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ ЛИНГВИСТИЧЕСКОГО ТУРИЗМА И ВОЗМОЖНОСТЬ ЕГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ	1340
Усманова Диялфруз Каршиевна	
MAHALLIY BUDJET DAROMADLAR BAZASINI KENGAYTIRISHDA SOLIQ MA'MURIYATCHILIGINING METODOLOGIK ASOSLARI.....	1344
Sharopov Dilshodjon Raxmatullayevich	



MAHALLIY BUDJET DAROMADLAR BAZASINI KENGAYTIRISHDA SOLIQ MA'MURIYATCHILIGINING METODOLOGIK ASOSLARI

Sharopov Dilshodjon Raxmatullayevich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Mahalliy budjet daromadlar bazasini kengaytirishda soliq ma'muriyatchiligining metodologik asoslari kompleks tarzda tadqiq etilgan. Jumladan, soliq ma'muriyatchiligining nazariy-metodologik jihatlari, uning amaldagi holati va samaradorligi tahlil qilingan. Shuningdek, mahalliy budjet daromadlarini oshirishda soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari aniqlangan. Xorijiy mamlakatlar tajribasi o'rganilib, milliy amaliyotga mos ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: mahalliy budjet, budjet daromadlari, soliq ma'muriyatchiligi, soliq tushumlari, daromad bazasi, metodologiya, samaradorlik, soliq siyosati, xorijiy tajriba

Аннотация. Комплексно исследуются методологические основы налогового администрирования в процессе расширения доходной базы местных бюджетов. Рассматриваются теоретико-методологические аспекты налогового администрирования, анализируется его текущее состояние и эффективность. Определены приоритетные направления совершенствования налогового администрирования в целях увеличения доходов местных бюджетов. На основе изучения зарубежного опыта разработаны научно-практические рекомендации, адаптированные к национальной практике.

Ключевые слова: местный бюджет, доходы бюджета, налоговое администрирование, налоговые поступления, доходная база, методология, эффективность, налоговая политика, зарубежный опыт

Annotation. This study comprehensively examines the methodological foundations of tax administration in expanding the revenue base of local budgets. It analyzes the theoretical and methodological aspects of tax administration, as well as its current state and effectiveness. The research identifies priority directions for improving tax administration to increase local budget revenues. Based on international experience, scientific and practical recommendations adapted to national conditions are proposed.

Keywords: local budget, budget revenues, tax administration, tax revenues, revenue base, methodology, efficiency, tax policy, international experience

KIRISH

Hozirgi global iqtisodiy beqarorlik, xalqaro moliyaviy oqimlarning o'zgaruvchanligi va fiskal siyosatga qo'yilayotgan yangi talablar sharoitida mahalliy budjetlarning moliyaviy mustaqilligini ta'minlash masalasi nafaqat iqtisodiy, balki institutsional va ijtimoiy ahamiyatga ham ega bo'lib bormoqda. Ayniqsa, markazlashgan moliyaviy resurslarga yuqori darajada qaramlik hududlarning ichki imkoniyatlaridan to'liq foydalanmaslikka olib keladi. Shu bois hududiy iqtisodiy salohiyatni ishga solish, ichki daromad manbalarini safarbar etish va fiskal barqarorlikni ta'minlash bugungi kunning ustuvor vazifalaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

Mahalliy budjetlar hududiy rivojlanishning moliyaviy tayanchi sifatida nafaqat infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish, balki aholi turmush darajasini oshirish, ijtimoiy xizmatlar sifatini yaxshilash va iqtisodiy faollikni rag'batlantirishda ham muhim rol o'ynaydi. Biroq mavjud amaliyot shuni ko'rsatadiki, ko'plab hududlarda daromad bazasining yetarli darajada shakllanmaganligi, soliqqa tortish bazasining torligi va soliq yig'imlarining past samaradorligi ushbu tizimning barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu esa, o'z navbatida, mahalliy budjetlarning transferlarga qaramligini kuchaytiradi.

Mazkur muammolarni bartaraf etishda soliq ma'muriyatchiligi alohida o'rin tutadi. Chunki soliq ma'muriyatchiligi — bu shunchaki fiskal tushumlarni yig'ish vositasi emas, balki soliq siyosatini amaliyotga joriy etuvchi, iqtisodiy subyektlar bilan davlat o'rtasidagi moliyaviy munosabatlarni tartibga soluvchi murakkab tizimdir. Uning samaradorligi esa soliq bazasini aniqlash, soliq to'lovchilarni qamrab olish darajasi, soliq intizomini ta'minlash, yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish kabi omillar bilan chambarchas bog'liqdir.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mahalliy budjet daromadlar bazasini kengaytirish va soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish masalalari zamonaviy iqtisodiy tadqiqotlarda muhim o'rin tutadi. Ushbu yo'nalishdagi ilmiy ishlar tahlili shuni ko'rsatadiki, soliq ma'muriyatchiligining samaradorligi budjet daromadlarini shakllantirishda hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi.

Xorijiy olimlardan Richard Bird va Roy Bahl mahalliy budjetlarni shakllantirishda soliq tizimi va ma'muriyatchiligining o'zaro bog'liqligini asoslab bergan [1]. Ularning tadqiqotlarida mahalliy darajada soliq tushumlarini oshirish uchun soliq bazasini kengaytirish va ma'muriy mexanizmlarni soddalashtirish zarurligi ta'kidlanadi.

Shuningdek, Vito Tanzi tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda soliq ma'muriyatchiligining institutsional asoslari va uning davlat moliyasi barqarorligiga ta'siri keng yoritilgan [2]. Uning fikricha, samarali soliq ma'muriyatchiligi yuqori darajadagi soliq intizomi va shaffoflikni ta'minlaydi.

Xalqaro tashkilotlar, jumladan International Monetary Fund va World Bank tomonidan tayyorlangan hisobotlarda soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari sifatida raqamlashtirish, riskka asoslangan nazorat tizimini joriy etish va ma'lumotlar almashinuvini kuchaytirish kabi omillar ko'rsatilgan [3].

MDH va milliy iqtisodiy adabiyotlarda ham mazkur masalaga alohida e'tibor qaratilgan. Xususan, mahalliy tadqiqotchilar soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish orqali mahalliy budjet daromadlarini oshirish, soliq yukini optimallashtirish va yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish mumkinligini ta'kidlaydilar.

PhD U. Tulakovning fikricha, O'zbekistonda ko'chmas mulk soliqlarida asosiy muammo kadastr va bozor qiymatlari o'rtasidagi katta tafovut ekanligini ko'rsatadi. U baholash uslubiyatini yangilash, ommaviy baholash va qiymatlarni indeksatsiya qilishni joriy etishni taklif qiladi [4]. Shuningdek, zamonaviy axborot texnologiyalaridan, jumladan, geografik axborot tizimlari va elektron kadastr bazasidan foydalanish orqali ma'lumotlarni integratsiyalash zarurligini ta'kidlaydi. Bu usullar mahalliy budjet daromadlarini oshirish va soliq adolatini mustahkamlashga xizmat qiladi, degan xulosaga keladi.

Mahalliy olimlar I. Niyazmetov, S. Voronin, B. Qoraboev va D. Ugaylarning ilmiy tadqiqotlarida O'zbekistonda mol-mulk va yer soliqlarini yagona yondashuv asosida modernizatsiya qilish zarurligi ta'kidlanadi. Ular soliq bazasini bozor qiymatlariga yaqinlashtirish, yillik qayta baholash tizimini joriy etish va tariflarni tabaqalashtirishni taklif etadilar. Qoraboev soliq imtiyozlarini tartibga solish, shikoyat qilish mexanizmlarini yaratish hamda ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash muhimligini qayd etadi [5]. Ularning takliflari amaliy tajriba loyihalari asosida sinovdan o'tkazilishi lozimligi ham ta'kidlanadi.

So'nggi yillarda raqamli iqtisodiyot sharoitida soliq ma'muriyatchiligini transformatsiya qilish masalasi alohida tadqiqot obyektiga aylandi. Bu borada elektron soliq xizmatlari, onlayn nazorat tizimlari va katta ma'lumotlar (Big Data) tahlilidan foydalanish orqali soliq tushumlarini samarali boshqarish imkoniyatlari kengaymoqda.

Shu bilan birga, tahlillar shuni ko'rsatadiki, mahalliy budjetlar daromad bazasini kengaytirishda soliq ma'muriyatchiligining aynan metodologik asoslarini kompleks tadqiq etishga bag'ishlangan ilmiy ishlar yetarli darajada emas. Bu esa mazkur mavzuning dolzarbligi va ilmiy ahamiyatini yanada oshiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada mantiqiy abstraksiya, tizimli tahlil, induksiya va deduksiya hamda statistik tahlil usullaridan keng foydalanilgan bo'lib, tadqiqot jarayonida foydalanilgan nazariy hamda statistik materiallarning ishonchligi vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mahalliy budjet daromadlar bazasini kengaytirishda soliq ma'muriyatchiligining samaradorligini baholash ushbu tadqiqotning markaziy masalalaridan biri hisoblanadi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, mahalliy budjetlar daromadlarining asosiy qismi soliq tushumlari hissasiga to'g'ri keladi va ularning hajmi bevosita soliq ma'muriyatchiligi sifatiga bog'liq.

Olib borilgan tahlillar natijasida aniqlandiki, amaldagi soliq ma'muriyatchiligi tizimida quyidagi muammolar mavjud:

- soliq bazasining to'liq qamrab olinmaganligi;
- norasmiy iqtisodiyot ulushining yuqoriligi;
- soliq ma'muriyatchiligi jarayonlarida raqamli texnologiyalardan yetarli darajada foydalanilmayotganligi;
- soliq nazoratining samaradorligi pastligi va riskka asoslangan yondashuvlarning cheklanganligi.

Statistik va qiyosiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, soliq ma'muriyatchiligini raqamlashtirish darajasi yuqori bo'lgan mamlakatlarda mahalliy budjet daromadlari barqaror o'sish tendensiyasiga ega. Xususan, elektron soliq xizmatlari, avtomatlashtirilgan hisob-kitob tizimlari va ma'lumotlar integratsiyasi soliq tushumlarini oshirishga xizmat qilmoqda.

Tadqiqot davomida soliq ma'muriyatchiligining samaradorligi va mahalliy budjet daromadlari o'rtasidagi bog'liqlik shartli ravishda quyidagi yo'nalishlarda namoyon bo'lishi aniqlandi:

- soliq ma'muriyatchiligining shaffofligi oshgan sari soliq intizomi mustahkamlanadi;
- ma'muriy xarajatlar kamaygani sari soliq tushumlarining samaradorligi ortadi;
- raqamli texnologiyalar joriy etilgani sari soliq bazasi kengayadi va yashirin iqtisodiyot qisqaradi.


Shuningdek, ekonometrik yondashuv elementlari asosida o'tkazilgan tahlil natijalari soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish ko'rsatkichlari (raqamlashtirish darajasi, nazorat samaradorligi, xizmat ko'rsatish sifati) bilan mahalliy budjet daromadlari o'sishi o'rtasida musbat korrelyatsiya mavjudligini ko'rsatdi.

Mahalliy budjet mavqeini yanada oshirish hukumatning budjet siyosati samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan muhim omillardan biridir.

Bu yo'nalishdagi ishlarning davomi sifatida Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2016-yil 14-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz" nomli nutqida yana bir muhim vazifa — kichik biznes va tadbirkorlik sohasini qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish ekani alohida ta'kidlangan. Ushbu nutqda mamlakat iqtisodiy qudratini mustahkamlash, tinchlik va barqarorlikni ta'minlash, ijtimoiy totuvlikni kuchaytirish hamda ushbu soha ulushini oshirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish zarurligi qayd etilgan.

Xususan, tadbirkorlikni rivojlantirishga to'sqinlik qilish davlat siyosatiga zid deb baholanishi, shuningdek "xalq boy bo'lsa, davlat ham boy va qudratli bo'ladi" degan tamoyil ilgari surilgani ham bejiz emas.

Kichik biznes va tadbirkorlik sohalari rivojlangan sari, avvalo, aholi bandligi ta'minlanadi va xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan to'lanadigan soliqlar hisobiga budjet daromadlari ortadi.



1-rasm. Mahalliy budjet daromadlarining guruhlanishi¹

Mahalliy budjetning davlat budjet siyosatidagi tutgan o'rni mahalliy budjet daromadlarini tashkil etish hamda uning tarkibini belgilashda moliyaviy asos hisoblanadi.

Mahalliy budjet daromadlarini oshirishda soliq bazasini kengaytirish va soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish masalalari bo'yicha ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar asosida quyidagi natijalarga erishilgan:

– jismoniy shaxslarning mol-mulkidan olinadigan soliq va yer solig'i stavkalariga nisbatan 0,7 dan 1,3 gacha pasaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni qo'llash huquqini berish taklifi amaliyotga joriy etilib, Soliq kodeksining 437-moddasi hamda 2022-yil 30-dekabrda O'RQ-812-sonli Qonunda o'z aksini topgan. Natijada hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasiga qarab differensial soliq stavkalarini qo'llash imkoniyati yaratilgan va 2023-yilda yer solig'i bo'yicha qo'shimcha 89,6 mlrd so'm tushum ta'minlangan;

– jismoniy shaxslar mulkidagi yashash uchun mo'ljallanmagan ko'chmas mulk ob'ektlari joylashgan yer uchastkalari yuridik shaxslarga ijaraga berilganda, ushbu yerlar uchun yuridik shaxslar stavkasi asosida soliq undirish tizimi joriy etilgan. Natijada tijorat maqsadida foydalanilayotgan yerlar bo'yicha davlat budjeti uchun barqaror daromad manbai shakllangan;

– ko'chmas mulk uchun eng kam soliq qiymatlarini hududlarning rivojlanish darajasiga qarab differensiallashtirish (rivojlangan hududlar — 1,0; o'rtacha — 0,7–0,9; kam rivojlangan — 0,5–0,7) tizimi Soliq kodeksining 412-moddasiga kiritilgan o'zgartirishlar asosida joriy etilgan. Bu esa kam rivojlangan hududlarda soliq yukini kamaytirib, tadbirkorlikni rag'batlantirishga xizmat qilgan;

– bino va inshootlarning soliq bazasini bozor qiymatiga yaqinlashtirish maqsadida 1 kvadrat metr uchun minimal qiymatlar (Toshkent shahri — 3 mln so'm, viloyat markazlari — 2 mln so'm, boshqa hududlar — 1,2 mln so'm)

1 O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksi asosida muallif tomonidan tuzilgan.



belgilangan. Natijada mol-mulk solig'i tushumlarining barqarorligi va hajmi oshgan;

– yuk ko'tarish quvvati 10 tonnadan yuqori bo'lgan transport vositalari uchun kunlik 50 000–150 000 so'm miqdorida yig'im joriy etilgan. Bu orqali mahalliy budjetlar uchun qo'shimcha moliyaviy manba shakllantirilgan.

Mahalliy budjetlarning moliyaviy mustaqilligini ta'minlash uchun ularning daromad bazasini mustahkamlash zarur. Buning uchun mahalliy boshqaruv organlarini iqtisodiy bazani rivojlantirishga va hududlarga investitsiya jalb qilishga rag'batlantirish lozim. Bu esa soliq tushumlarining ortishiga olib keladi.

Shuningdek, mahalliy soliq va boshqa majburiy to'lovlar tasdiqlangan normativlarga muvofiq Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti, viloyatlar, Toshkent shahri hamda tuman va shahar budjetlari o'rtasida qayta taqsimlanadi.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida mahalliy budjetlarga bo'lgan e'tibor ortib bormoqda. Ularni qo'llab-quvvatlash imkoniyatlari kengayib borayotgan bo'lsa-da, mahalliy budjet xarajatlarining oshishi fonida daromadlar barqarorligini ta'minlash bilan bog'liq muammolar ham yuzaga kelmoqda.

Shuningdek, Shavkat Mirziyoyev tomonidan qabul qilingan 2020-yil 3-dekabrda PF-6121-son Farmonda yer va mol-mulkni soliqqa tortishni takomillashtirish, baholashning zamonaviy usullarini joriy etish hamda mahalliy hokimiyat organlari mustaqilligini oshirish vazifalari belgilangan.

Ushbu vazifalarning amalga oshirilishi hududlarda mahalliy budjet daromadlari bazasini kengaytirish va soliq undirish mexanizmlarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Har yili davlat budjeti parametrlarini belgilashda viloyatlar uchun umumdavlat soliqlari bo'yicha ajratmalar me'yorlari belgilanadi. Biroq ushbu me'yorlarning tez-tez o'zgarishi hududlar o'rtasida daromadlarni qayta taqsimlashni kuchaytiradi va mahalliy hokimliklarning soliq bazasini kengaytirishga bo'lgan rag'batini pasaytiradi.

Bu esa hududlarni uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish imkoniyatlarini cheklaydi. Shu bois mahalliy budjet mavqeini oshirish davlat budjet siyosati samaradorligini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi.

1-jadval

O'zbekiston Respublikasining mahalliy budjet daromadlarining 2018-2025-yillardagi dinamikasi tahlili²²

Ko'rsatkichlar	Yillar (mlrd.so'm)							
	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024	2025
Davlat budjet daromadlari	79 099	112 165	132 938	164 799	201 864	231 721	274 423	359 775
Davlat budjeti xarajatlari	79 736	118 009	144 143	188 257	236 692	281 097	310 926	383 928
Respublika budjeti daromadlari	56 155	77 031	105 236	129 626	154 474	176 182	217 398	288 508
Respublika budjeti xarajatlari	43 700	65 959	96 952	122 723	147 904	179 357	224 114	274 724
Mahalliy budjet daromadlari	22 944	35 134	27 702	35 173	47 390	55 539	57 025	71 267
<i>Ulushi %</i>	<i>40,9%</i>	<i>45,6%</i>	<i>26,3%</i>	<i>27,1%</i>	<i>30,7%</i>	<i>31,5%</i>	<i>26,2%</i>	<i>24,7%</i>
Mahalliy budjet xarajatlari	36 036	52 050	47 191	65 534	88 787	101 741	86 812	109 204
<i>Ulushi %</i>	<i>82,5%</i>	<i>78,9%</i>	<i>48,7%</i>	<i>53,4%</i>	<i>60,0%</i>	<i>56,7%</i>	<i>38,7%</i>	<i>39,8%</i>
Yuqori budjetdan olingan transfert miqdori	13 091	16 915	19 488	30 361	41 397	46 012	16 837	18 462
<i>Ulushi %</i>	<i>30,0%</i>	<i>25,6%</i>	20,1%	24,7%	28,0%	25,7%	7,5%	6,7%

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, O'zbekiston Respublikasi davlat budjeti daromadlari keyingi yillarda izchil ravishda o'sib borgan. Shu bilan birga, mahalliy budjet daromadlari davlat budjeti daromadlariga nisbatan ancha tez sur'atlarda oshgan. Jumladan, 2018-yilda mahalliy budjet daromadlari 22 944 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2019-

2 ² O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma'lumotlari, normativ-huquqiy hujjatlar hamda ilmiy adabiyotlar asosida muallif tomonidan tuzilgan.



yilda bu ko'rsatkich 35 134 mlrd so'mga yetib, davlat budjeti daromadlarining 45,6 foizini tashkil qilgan.

Biroq, shunga qaramay, mahalliy budjet daromadlarining davlat budjetidagi salmog'i Respublika budjeti salmog'iga nisbatan pastligicha qolmoqda. Masalan, 2021-yilda ushbu ko'rsatkich 35 173,0 mlrd so'mni tashkil etib, jami davlat budjeti daromadlarining 27,5 foiziga teng bo'lgan. 2022-yilda esa bu ko'rsatkich 47 390,3 mlrd so'mni tashkil etib, jami davlat budjeti daromadlarining 31,9 foiziga yetgan.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, 2019–2022-yillar davomida pandemiya ta'siri natijasida ayrim davrlarda daromadlar o'sish sur'atlari pasaygan. Shunga qaramay, 2023-yilda davlat budjeti daromadlari 184 509,0 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, mahalliy budjetlarga 55 728,9 mlrd so'm mablag' undirilgan. Natijada ushbu ko'rsatkich davlat budjeti daromadlariga nisbatan 30,2 foizni tashkil etib, ijobiy natijalar qayd etilgan. Bu holat mahalliy budjet daromad bazasining mustahkamlanishi va undirish mexanizmlarining takomillashgani bilan izohlanadi.

Mahalliy budjetning asosiy daromad manbalari sifatida mahalliy soliq va yig'imlar muhim o'rin tutadi. Ular mahalliy budjet daromadlarining o'sishiga mutanosib ravishda takomillashtirilib borilmoqda. Bozor munosabatlariga o'tish jarayonida amalga oshirilgan islohotlar ham mahalliy budjet daromad bazasini mustahkamlashga qaratilgan.

Mahalliy soliq va yig'imlar joriy etilgan davrdan boshlab ularning tarkibida nafaqat miqdoriy, balki sifat jihatdan ham sezilarli o'zgarishlar yuz berdi. Bugungi kunda ularning yangi turlari joriy etilib, amaliyotda samarali qo'llanilmoqda.

Shu bilan birga, mahalliy budjet daromadlari mahalliy xarajatlarni to'liq qoplash uchun yetarli emasligi muammosi saqlanib qolmoqda. Shu sababli umumdavlat soliqlaridan ajratmalar va byudjetlararo transfertlar tizimi amal qilmoqda.

Umumdavlat soliqlarining mahalliy budjetlarga taqsimlanish me'yorlari hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi, daromad va xarajatlar o'rtasidagi nomutanosiblikdan kelib chiqib belgilanadi.

Mahalliy budjetlarni samarali boshqarishning muhim vazifalaridan biri hududlarning iqtisodiy salohiyati va ijtimoiy ehtiyojlarini budjet resurslari bilan muvozanatlashdir. Bu esa budjetlararo munosabatlarni takomillashtirishni talab etadi.

Hududning budjet tizimidagi o'rni uning daromad va xarajatlar tarkibining muvozanatli bo'lishi, iqtisodiyotdagi ulushi, aholi dinamikasi va boshqa makroiqtisodiy omillarga bog'liq.

Mahalliy budjet daromadlariga tartibga soluvchi soliqlardan ham tushumlar kelib tushadi. Ular umumdavlat soliqlarining ma'lum ulushini hududlarga ajratish orqali shakllanadi.

Mahalliy soliq va yig'imlarning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- mahalliy ehtiyojlarni moliyalashtirishga yo'naltiriladi;
- mahalliy hokimiyat organlari tomonidan boshqariladi;
- respublika qonunchiligi bilan tartibga solinadi.

Shuningdek, mahalliy soliq va yig'imlar belgilanishiga ko'ra ikki guruhga bo'linadi:

respublika darajasida joriy etiladigan;

mahalliy hokimiyat organlari tomonidan joriy etiladigan soliqlar.

Mahalliy budjetlarning moliyaviy barqarorligini baholashda "o'z daromad bazasi bilan ta'minlanganlik" ko'rsatkichi muhim ahamiyatga ega. Shu asosda budjetlar donor (ortiqcha mablag'ga ega) va resipiyent (transfertga muhtoj) turlarga ajratiladi.

Budjet tizimida daromad va xarajatlarning taqsimlanishi vertikal va gorizontallik nomutanosibliklarni keltirib chiqarishi mumkin.

– Vertikal nomutanosiblik — mahalliy budjet xarajatlarining o'z daromadlaridan oshib ketishidir;

– Gorizontallik nomutanosiblik — hududlar o'rtasida daromad va xarajatlar notekis taqsimlanishidir.

Mazkur nomutanosibliklarni bartaraf etish uchun davlat tomonidan subvensiyalar, subsidiyalar va byudjetlararo transfertlar qo'llaniladi.

Bugungi kunda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri budjet daromadlarida transfertlarning ulushi yuqoriligicha qolmoqda. Shu sababli ularning ulushini bosqichma-bosqich kamaytirish zarur.

Respublika budjetidan hududlarga ajratilgan transfertlar hajmi quyidagicha o'sib borgan:

2018-yil — 13 091 mlrd so'm,

2019-yil — 16 915 mlrd so'm,

2020-yil — 19 487,8 mlrd so'm,

2021-yil — 30 361,5 mlrd so'm,

2022-yil — 41 397,2 mlrd so'm,

2023-yil — 46 011,7 mlrd so'm,

2024-yil — 16 837 mlrd so'm,

2025-yil — 18 462 mlrd so'm.



2-jadval

Hududlar mahalliy budjetiga 2018-2025-yillar davomida respublika budjetidan ajratilgan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar to'g'risida ma'lumot (mlrd. so'm)³³

Hududlar nomi	2023-yil			2024-yil			2025-yil		
	Daromad	Xarajat	Transfert	Daromad	Xarajat	Transfert	Daromad	Xarajat	Transfert
Qoraqalpog'iston Res.	2 844	6 806	3 962	2 933	5 638	2 078	3 333	6 723	2 223
Andijon viloyati	3 931	8 137	4 206	3 782	6 757	1 914	4 836	8 402	2 180
Buxoro viloyati	3 877	5 968	2 092	3 899	5 348	361	4 597	6 677	694
Jizzax viloyati	2 228	4 646	2 418	2 151	3 847	889	2 605	5 137	1 103
Qashqadaryo viloyati	4 608	10 519	5 912	4 573	6 586	927	5 427	8 193	974
Navoiy viloyati	3 039	4 046	1 007	2 690	3 803	183	3 706	4 744	93
Namangan viloyati	3 517	8 114	4 597	3 391	5 983	1 984	4 157	7 539	2 228
Samarqand viloyati	5 100	8 779	3 678	5 313	7 679	1 589	6 483	9 896	2 093
Surxondaryo viloyati	3 043	7 944	4 901	2 989	5 542	1 833	3 535	6 724	2 062
Sirdaryo viloyati	1 390	3 148	1 757	1 528	2 752	902	1 929	4 400	812
Toshkent viloyati	6 024	7 770	1 746	5 448	7 042	517	7 378	8 729	263
Farg'ona viloyati	5 169	9 890	4 721	5 274	8 132	1 944	6 382	10 775	2 144
Xorazm viloyati	2 741	5 610	2 869	2 877	4 691	1 204	3 413	5 714	1 331
Toshkent shahar	8 218	10 364	2 146	10 177	13 013	514	13 486	15 551	262
JAMI	55 729	101 741	46 012	57 025	86 812	16 837	71 267	109 204	18 462

2023–2025-yillarda O'zbekiston hududlari kesimida mahalliy budjet ko'rsatkichlari ijobiy o'sish dinamikasini namoyon etmoqda. 2023-yilda jami daromadlar 55 729 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilga kelib 71 267 mlrd so'mga yetib, sezilarli darajada oshgan.

Shu bilan birga, xarajatlar hajmi ham ortib, 101 741 mlrd so'mdan 109 204 mlrd so'mga ko'tarilgan. Transfertlar hajmi 2023-yildagi 46 012 mlrd so'mdan 2024-yilda keskin kamayib, 16 837 mlrd so'mni tashkil etgan, bu esa hududlarning moliyaviy mustaqilligi oshganidan dalolat beradi.

2025-yilda esa transfertlar hajmi biroz ortib, 18 462 mlrd so'mga yetgan bo'lsa-da, umumiy tendensiyada pasayish saqlanib qolgan. Ayniqsa, Toshkent shahri va yirik viloyatlarda daromadlarning yuqori sur'atlarda o'sishi hududlararo iqtisodiy tafovutlar mavjudligini ko'rsatmoqda.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, mahalliy budjet daromadlar bazasini kengaytirishda soliq ma'muriyatchiligining metodologik asoslarini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. Samarali soliq ma'muriyatchiligi soliq tushumlarini to'liq va o'z vaqtida safarbar etish, budjet barqarorligini ta'minlash hamda hududlarning moliyaviy mustaqilligini oshirishga xizmat qiladi.

3 ³ O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma'lumotlari, normativ-huquqiy hujjatlar hamda ilmiy adabiyotlar asosida muallif tomonidan tuzilgan.



Shu munosabat bilan quyidagi ustuvor yoʻnalishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- soliq maʼmuriyatchiligini raqamlashtirish va zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etish;
- soliq nazoratini riskka asoslangan yondashuvlar asosida tashkil etish;
- soliq toʻlovchilar bilan oʻzaro munosabatlarni soddalashtirish va shaffoflikni oshirish;
- soliq bazasini kengaytirishga qaratilgan institutsional islohotlarni amalga oshirish.

Xulosa qilib aytganda, soliq maʼmuriyatchiligining ilmiy asoslangan metodologik yondashuvlarini takomillashtirish mahalliy budjetlar daromadlarini barqaror oshirishning muhim omili hisoblanadi. Shu bois mazkur yoʻnalishda kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur.

Shuningdek, mahalliy budjetlarni balanslashtirish maqsadida soliq va boshqa daromad manbalarini turli darajadagi budjetlar oʻrtasida quyidagi tamoyillar asosida taqsimlash maqsadga muvofiq:

- daromadlarni taqsimlashning yagona tamoyil va yondashuvlar asosida amalga oshirilishi;
- budjet tizimi pogʻonalaridagi boʻgʻinlarning oʻz daromadlari xarajat vakolatlarini moliyalashtirishning asosiy manbai boʻlishi;
- soliq maʼmuriyatchiligi va soliq siyosatida daromad manbalarini oqilona taqsimlash tamoyillariga amal qilinishi;
- byudjetlararo tartibga soluvchi transfertlarni mahalliy budjetlar oʻrtasida aholi soni va budjet taʼminoti darajasidan kelib chiqib taqsimlash tizimini yoʻlga qoʻyish.

Davlat va hududiy budjetlar daromadlarini oshirish uchun qoʻshimcha zaxiralarni aniqlashda manfaatdor vazirlik va idoralar, shuningdek mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan hamkorlikni yanada kengaytirish zarur.

Shuningdek, mol-mulk va yer soliqlarini hisoblashda koʻchmas mulk obyektlarini bozor qiymatiga yaqin boʻlgan kadastr qiymati asosida baholash tizimini bosqichma-bosqich joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida” PF–60-son Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>
2. Alt, C., Bahl, R., Baughman, M., Berney, R., Break, G., Brennan, G., et al. (2006). *[Title not specified]*.
3. Tanzi, V. (1998). Corruption around the world: Causes, consequences, scope, and cures. *IMF Staff Papers*, 45(4), 559–594.
4. International Monetary Fund (IMF). Official website: <https://www.imf.org>
5. World Bank. Official website: <https://www.worldbank.org>
6. Tulakov, U. T. (2021). Methodological aspects of strategizing the evaluation of land in the taxation of real estate on the basis of cadastre value. *Journal of Management Value & Ethics*, 22(4), 6–14.
7. Niyazmetov, I. M., Rakhmonov, A. S., & Otabekov, O. (2023). Economic growth and optimal tax burden: A case of Uzbekistan's economy. *Journal of Tax Reform*, 9(1), 47–63.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100